

O‘ZBEK VA YAPON TILIDA FRAZEOLOGIK IBORALARNING O‘RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653445>

Jalolova Laylo Shavkatovna

Samarqand davlat chet tillari inistituti

Sharq tillari fakulteti yapon tili yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va Yapon tillaridagi frazeologik birliklar aniqlandi va ularning grammatik, semantik - struktur jihatdan tahlil qilindi. Tillarda frazeologik iboralarning o‘rni bo‘yicha munozara yurutildi. Birliklarning frazeologik va grammatik ma‘nolari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, qo‘shma so‘z, omonim, aforizim, sinonim, paronim, antonim, frazeologik iboralar.

ABSTRACT

This article identifies phraseological units in Uzbek and Japanese and analyzes them grammatically, semantically and structurally. The place of phraseological expressions in languages was debated. Phraseological and grammatical meanings of units were studied.

Keywords: phraseology, compound word, aphorism, synonym, paronym, antonym, phraseological phrase.

АННОТАЦИЯ

В данной статье выявляются фразеологизмы узбекского и японского языков, проводится их грамматический, семантический и структурный анализ. Спорили о месте фразеологических выражений в языках. Были изучены фразеологические и грамматические значения единиц.

Ключевые слова: фразеология, сложное слово, афоризм, синоним, пароним, антоним, фразеологизм.

KIRISH

Tilning so‘z xazinasini nutqiy idodalilikning o‘ziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug‘at boyligidagi so‘zlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda iboralarning ifodalilik imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Frazeologik iboralardan biz kundalik turmushimizda ko‘p

foydalanar ekanmiz Tinglovchiga o‘z fikrimizni aniq, ravon eng asosiysi ta'sirli va ifodali holda yetkazib berish uchun muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologiya - grekcha "Prasis" - *ifoda*, logos *ta'limot* degan ma'noni bildiradi.

[1]. A.Reformatiskiye frazeologik birikmalar to'g'risida shunday deydi: "Biror adabiy yo'nalishga yoki biror muallifni g ijodida qo'laniladigan maxsus so'z birikmalari frazeologik birliklar deb ataladi".

Bir qismi yoki butun bir birikma ko'chma ma'noda kelganida bo'yoqdorlikka boy bo'lgan turg'un iboralar frazeologizmlar dep yuritiladi. Iboralar ma'no jihatidan bitta so'zga teng keladi. Bosh *qo'shmoq* - ibora, ya'ni "aralashmoq - so'z. *Yo'lga tushmoq* - ibora, ya'ni "jo'namoq - so'z. Bo'zchining *mokisiday* - ibora, ya'ni "serqatnov-so'z

Boshqa millatlarda bo'lganidek, o'zbek va yapon tillarida ham frazeologik iboralarning o'zni juda beqiyos. Hozirgi kunda yapon tilidagi manbalarning o'zbek tilidagi tarjima kitoblari va manbalar kamligi asosiy muamolardan biridir. Bu borada qator rus tilshunos olimlari jumladan, A.Iskos, Teo Shippen, M.D.Stepanova kabi olimlarining ilmiy kitoblari o'zbek tilida tarjima qilingan holda yapon tilining muhim tarmoqlari o'zbek tilshunos olimlari tomonidan ham o'rganilmoqda.[3]. Frazeologiya bo'limida asosiy tadqiqot manbayi Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" yapon tilidagi iboralarni o'zbek tilidagi muqobilini topishda ishonchli manba hisoblanadi.

Tarjima – bu bir xalqning manaviy boylklarini boshqa bir xalqqa yetkazib berish demakdir. Shuning uchun ham farzeologiya bo'limida tarjima muhim ro'l o'ynaydi. Ko'plab olimlar A.B.Kuninning frazeologizmlar to'g'risidagi tarifiga asoslanadilar, ya'ni "Frazeologizmlar bular shunday so'z birikmalari ularning komponentlari to'la yoki qisman ko'chma ma'noga ya'ni frazeologik ma'noga ega bo'lgan komponentlardan iborat. Frazeologik birliklarga umuman turg'unlik muhimdir" – deb aytadi.

Ya'ni frazeologik birliklarda turg'unlik, ma'nolarning ta'siri va bo'yoqdorlik olg'a suriladi.

Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bolish, kishilarning xilma-xil xarakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalidir.[2] Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir.

Frazeologik ibora tushunchasini ilmiy asoslaydigan bo'lsak, ma'nosi bir so'zga

teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarga iboralar deyiladi . Ular ikki va undan ortiq soʻzning koʻchgan maʼnolari asosida tarkib topgan lugʻaviy birlik birlik boʻlib, soʻz kabi lugʻaviy maʼno anglatadi. Iboralar ikki va undan ortiq soʻzlardan tashkil topgani bois qoʻshma soʻz va soʻz birikmalariga oʻxshaydi lekin ular koʻchma manoga ega ekani, tasirchanligi bilan qoʻshma soʻzlardan farq qiladi.

Barqarorligi nutqda tayyor holda olib kirilishi bilan soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzdan farq qiladi .

Masalan:

Ibora: Tapa sochi tikka boʻlmoq- *achchiqlanmoq* Ogʻzini tanobi qochmoq - *sevinmoq*. Soʻz birikmalari: *uzun sochli, uyga ketmoq*. Qoʻshma soʻz: To'ytepa, laylakqor.

Yuqoridagi misollarga nazar soladigan boʻlsak, frazeologik ibora, qoʻshma soʻz va soʻz birikmalarning farqini anglashimiz mumkin. Frazeologizmlar shakl va maʼno munosabatiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi.

Frazeologik omonimlar yaʼni turli maʼno ifodalovchi shakldosh iboralar kiradi .Ogʻziga olmadi- yemadi, ogʻziga olmadi - gapirmadi.

Frazeologik sinonimlarga maʼnodosh lekin shakli boshqa iboralar kiradi.

Boʻyi bir qarich oʻsmoq - boʻyi koʻkka yetmoq, qovogʻidan qor yogʻmoq - figʻoni falakka yetmoq.

Frazeologik antonimlar - oʻzaro qarama - qarshi maʼno ifodalovchi iboralar kiradi. jagʻi ochilmoq- mum tishlamoq.

Paronim iboralar ham mavjud boʻlib, yuragi tars yorilib ketayozdi - "sabr chidami tugadi" maʼnosida. Yuragi qoq yorilayozdi - "sevinganidan qattiq hayajonlanmoq".

Salbiy maʼno: yer tishlamoq, "toʻngʻiz qopmoq".Yapon tilida ham oʻzbek tilida boʻlgani kabi frazeologik iboralarning roli katta. Bir qancha rus olimlari ilmiy ishlarida yapon tilida mavjud boʻlgan ideomalarni koʻp qismini oʻrganganlar.

Feʼl orqali yasalgan iboralar :

頭にくる - atama ni kuru - jaxli chiqmoq

口を開く -kuchi vo aku - gapirishga hozirlanmoq

顔が広い-kao ga hiroi - tanish - bilishi koʻp

気が長い-ki ga nagai

- boqi begʻam

鼻が高い- hanagataikai- bu r i koʻtarilgan 気に入る - ki ni iru - yoqtirmoq

ベストを尽す -besuto vo tsukusu- qoʻlidan kelgan barcha ishni qilmoq. Bu

ibora ma’nosi できるだけ- " iloji boricha ", "qo'lidan kelgunicha" degan so'z bilan sinonim bo‘la oladi.

口に合う - so'zma - so'z tarjima qilganda "og'izda uchrashmoq" bo‘lsada, ko‘chma ma’noda kelgani uchun "mazali " dep tarjima qilinib, o‘zbek tilida "tami tilni yoradi" iborasiga teng .

頭にくる so‘zma so'z tarjima qilinganda "Boshiga kelmoq "bo‘lsada, "jahli chiqmoq" degan ma’noda ishlatiladi va o‘zbek tilidagi "g‘azabi qaynagan" iborasiga teng.

鼻が高い"kekaygan" ma'nosida ishlatiladi va o‘zbek tilida "burni ko'tarilgan" iborasiga teng .

頭が低い- o‘z ma’nosida "boshi past " degani bo’lsa, "kamtarin" ma’nosida ishlatiladi.

あたまがいい - har ishda epcillik bilan harakatlanadigan kishilarga nisbatan ishlatiladi O‘zbek tilida "aqilli " deb tarjima qilinadi.

足下から鳥が立つ-ashimoto kara toriga tatsu- o'zbek tilida " to‘mdan tarasha tushganday " ma’nosida ishlatiladi . Bu ibora yaponiyada tasodifan sodir bo’ladigan, tez sodir boladigan ish xarakatlarga nisbatan qo'llaniladi.

てがいる tega iru - qo'li kelishmoq.

のうがない nouga nai miyasi aynigan.

耳がわるい mimiga varui- qulog'i og‘ir.

手を上げる- te vo ageru - qo‘l ko'tarmoq (urmoq).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi barcha misollar yapon tili iboralariga misol bo‘la oladi. o‘zbek tili grammatikasi va Yapon tili grammatikasini taqqoslaydigan bo‘lsak ularning gap tuzilishi deyarli bir xil . Ya’ni gapda birinchi ega, kesim bo‘ladi. Keyin esa, ikkinchi darajali bo'laklar va oxirida kesim bo‘ladi. Yapon tilida ham huddi shunday.

Iboralar va ularning mohiyati hamda xususiyati yapon tilidagi frazeologiyalarning o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi masala va muammolar bor. Bu muammolarni yechishda ilk harakatlar 1994-yilda professor Muxtor Umarxojayev va Qambarali Nazarovlar tomonidan tuzilgan "Yaponcha-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at" birinchi bor chop etilgan uch tilli frazeologik lug‘atlardan

biridir. Hozirgi kundagi izlanishlar mobaynida yaxshi natijalarga erishilmoqda.

REFERENCES

1. Michael L. Maynard K. "101 Japanese ideoms". 1994.
2. "Minna no nihongo 1".
3. Hamroyev M. A. "O‘zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi "
4. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati ". 1978
5. " Yapon tili frazeologizmlari". E .Matchonov . H . Tursunova.
6. Uno Yosikata "Syakai to keigo" 1977.
7. 11-sinf " Ona tili" darsligi 2019.
8. Hamroyev.M.A. Ona tili (Metodik qo‘llanma)- T: Ilm -Ziyo - Zakovat nashriyoti,2019. -89.
9. Mahmudov .N.M, Y.R.Odilov, G.Sh.Ziyodullayeva. Ona tili (O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus kasb - hunar kolleji muassasalari o‘quvchilari uchun darslik)-T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. -76.
10. Матчонов.Е, Турсунова.Н. Япон тили фразеологизмлари (укув кулланма)-Т: Тошкент давлат шарқшунослик институту укув услубий кенгаши томонидан нашрга тавсия етилган, 2009. - 56.
11. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
12. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
13. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
14. Odil o'g'li, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
15. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
16. Odil o'g'li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.
17. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале

английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.

18. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.

19. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.

20. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand*.

21. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.

22. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).

23. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.

24. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.

25. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.* (pp. 229-231).

26. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 5-10.

27. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (78)), 11-18.

28. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).

29. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).

30. Tuhtasinov, Ihom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
31. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
32. Сукиасян, Г. А., Тухтасинов, И. М., Гушул, Ю. В., & Баштанар, И. М. (2019). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века: материалы междунар. науч.-творч. форума (научной конференции), 7–8 нояб. 2019 г./сост.: СБ Синецкий (отв. сост.).
33. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
34. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданияй мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
35. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
36. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
37. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.